

## JISMONIY MADANIYAT SHAXS RIVOJLANISHINING SOSIAL OMILI SIFATIDA

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8415252>

**Madaminov Baxodir Sharifjanovich**

*Namangan davlat universiteti Jismoniy madaniyat kafedrasida dotsenti, p.f.n.*

### **Annotatsiya**

Maqolada bugungi kunda jamiyatda dolzarb xisoblangan sport madaniyatini rivojlantirish muammolari borasida muallifning ijtimoiy nuqtai nazarini bayon etilgan va yoshlarda sporti xodisasi jarayonlarining ahvolini ob'yektiv tahlil etishga xarakter qilingan. Yoshlarda jismoniy madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish dolzarbligini ta'kidlangan. O'zbekistonda sportga e'tibor ajdodlarimizdan me'ros ekanligi ta'kidlangan holda, sport xodisasi kam o'rganilgan sohalaridan biri bo'lib, ayniqsa o'quvchi-yoshlarining jismoniy madaniyatini shakllantirish masalasi yaxlit tadqiqot ob'yekti sifatida o'rganilmaganligi haqida xulosa beriladi.

### **Kalit so'zlar**

*jismoniy tarbiya va sport sosiologiyasi, vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga hurmat, jamiyatda sportni saqlash uchun individual va ommaviy holatlar, sosial faollik, inson shaxs sifatida, yuksak qadriyatli ehtiyojlar.*

## ФИЗИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА КАК СОЦИАЛЬНЫЙ ФАКТОР РАЗВИТИЯ ЛИЧНОСТИ

**Мадаминов Баходир Шарифжанович**

*к.п.н., доцент Наманганского государственного университета кафедры  
Физической культуры*

### **Аннотация**

В статье изложена социологическая точка зрения автора относительно проблем развития спортивной культуры, которые сегодня считаются актуальными и обществе. Предпринято попытка объективно проанализировать состояние процессов феномена спорта среди молодежи. Акцентируется внимание на становление и развития физической культуры и молодежи как на одном из изучаемых направлений, и делается вывод о том что вопрос формирования физической культуры студенческой молодежи не изучен как целостный объект исследования.

### **Ключевые слова**

*социология спорта и физической культуры, патриотизм, уважение к национальным традициям и ценностям, индивидуальные и общественные ситуации поддержания спорта и обществе, социальная активность, человек как личность, высокоценностные потребности.*

## **PHYSICAL CULTURE AS A SOCIAL FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF PERSONALITY**

**Madaminov Bakhodir Sharifjanovich**

*Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor of Namangan State University, Department of Physical Culture*

### **Abstract**

*The article presents the sociological point of view of the author regarding the problems of the development of sports culture, which are considered relevant in society today, and an attempt is made to objectively analyze the state of the processes of the phenomenon of sports among young people. attention is focused on the formation and development of physical culture among young people as one of the studied areas, and it is concluded that the issue of the formation of physical culture of student youth has not been studied as an integral object of research.*

### **Key words**

*sociology of sports and physical culture, patriotism, respect for national traditions and values, individual and social situations of maintaining sports in society, social activity, a person as a person, high-value needs.*

**Kirish.** O'zbekiston "Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari" tamoyili asosida taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Yangi davr shiddati jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an'analarni qaror toptirishga, xususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy-intyellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vatani va xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda jismoniy madaniyatini oshirish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

### **Adabiyotlar tahlili va metodlar**

W.Petty, Chadwick, Guerin, Mayhew, Marx und Engels, Frank, Parsons, Denton, Straus, Freidson, Foucault, Merton, Susser, Steudler, Rider and Goss, Mechanic, Winter va boshqa xorijlik olimlar, MDH mamlakatlarida tibbiyot sosiologiyasiga oid muammolar bilan shug'ullanish o'tgan asrning 50-70 yillariga

to'g'ri kelib, unda Biryukov D.A., Grahenkov N.I., Jdanov V.M., Izutkin A.M., Kerbikov O.V., Liso'n Yu.P., Serjantov V.F., Smulevich B.Ya., Saregorodsev G. I. va O'zbekistonda milliy mentalitetning jismoniy va ijtimoiy-ruhiy madaniyatga ta'sirining sosiologik masalalari M.Bekmuradov, R.A.Ubaydullayeva, M.Ganiyeva, ijtimoiy-psixologik va madaniy omillari A.Umarov, A.Xolbekov, Sh.Sodiqovalarning, ma'naviy va ekologik jihatlari T.Matibayev, A.Kaxharovlarning tadqiqot ishlarida o'z ifodasini topgan bir qator tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida mavzuimizga oid muammolar o'z aksini topgan. Jahon miqyosida "jismoniy madaniyat va sport" mavzusi orqali jamiyat a'zolarining bo'sh vaqti, turmush tarzi, sog'lik va salomatligini namoyon etishning bir belgisi sifatida qaralmoqda. Globallashtirilgan dunyo manzarasida "milliy", "diniy", " irqiy", "gender" tengsizliklar mavjudligi ijtimoiy mazmun kasb etib, u zamonaviy axborot jamiyatidagi jarayonlarning mohiyati, tendensiyalari va sabablarini jismoniy madaniyat va sport orqali ijobiy tomonga mustahkamlash, kishilik jamiyatining ijtimoiy-ruhiy kayfiyatiga bo'lgan salbiy ta'sirlarni ushbu jarayon orqali bartaraf etishga bo'lgan ob'yektiv zarurat tufayli yuzaga kelmoqda. Dunyoda jismoniy madaniyat masalalari o'rganilar ekan, uning ijtimoiy fanlar tizimida tutgan o'rni psixologik, sosiologik, antropologik, falsafiy va madaniy mazmunda ilmiy tadqiqotlarning mavzusi bo'lib qolmoqda.

Sosiologik adabiyotlarda "jismoniy madaniyat - bu jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida uning umumiy bir qismi bo'lgan madaniy jarayonlarida insonning maqsadli jismoniy kamol topishidagi rasional jarayondir"[1]. Globallashtiruvchi tufayli dunyoda shakllanayotgan zamonaviy qadriyatlar jismoniy madaniyat va sport orqali bugungi davr va insoniyat orttirgan hayotiy tajriba o'rtasidagi uzviylikka asoslangan insonlararo munosabatlar dinamikasini o'rganish zaruratini yuzaga keltirmoqda. O'zbekistonda "sog'lom turmush tarzi", "sog'lom avlod", "sog'lom millat", "jismoniy va ijtimoiy-ruhiy sport" tushunchalariga alohida ilmiy aniqlik kiritildi. Ushbu jihatlarda O'zbekistonda yuksak ma'naviyatli, madaniy va estetik jihatlarni o'zida to'liq jamlagan jismonan sog'lom, har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalash omillarini shakllantirdi. Yosh avlodni xalqimizning ko'p asrlik an'alarini hurmat qilish ruhida tarbiyalash ishidagi ro'lini oshirish kabi islohotlar natijasida jismoniy madaniyat va sport orqali vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga hurmat bilan qaraydigan barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish tizimi yuzaga keldi. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida «jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni

tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish»[2] kabi muhim vazifalar belgilangan. Bu borada jismoniy tarbiya va sport sohasida aholi keng qatlamini sport bilan shug'ullanishga va sog'lom turmush tarzini yuritishga jalb etish, jismonan sog'lom avlodni tarbiyalash, sport industriyasi va infratuzilmasini rivojlantirish, mamlakatimizning xalqaro sport maydonlaridagi yutuqlarini targ'ib qilish va uning keng e'tirof etilishiga qaratilgan yagona davlat siyosati jarayonlarining sosial prognozini amalga oshirish dolzarb hisoblanadi.

Davr taraqqiy etib borishi bilan ijtimoiy fanlar tizimida sosiomadaniy modernizatsiyaga oid nazariyalar tanqidi bir tomonlamali berila boshlandi. Tanqidga o'ta ahamiyatli qoidalar ham uchray boshladi. Tanqidchilar o'zaro munozaraga kirishar ekanlar, asosan an'anaviylik va zamonaviylik tushunchalarining assimetrik va dixotomik jihatlariga bo'lgan e'tiborni qayd etadilar. Ular zamonaviy jamiyatlarni mukammal, an'anaviylarini esa o'zgaruvchan va ziddiyatli harakterga ega ekanligini ta'kidlaydilar. Biz ham o'z navbatida o'zbek jamiyatidagi an'anaviylik va zamonaviylik maqomining bugungi holatini qay tartibda baholash kerakligini mahalliy tadqiqotchilar muhokamasiga tashlagan holda mulohazalarimizni ilgari surmoqchimiz. Aksariyat ilmiy adabiyot, OAV materiallari va Internet ma'lumotlarida ko'pincha mualliflar tomonidan "an'anaviy o'zbek jamiyati" degan iborani tez-tez qo'llanilishini kuzatamiz. O'tkazilgan tadqiqotlar va ilmiy nazariyalarga asoslangan holda aytish mumkinki, bugungi o'zbek jamiyati an'anaviylikka mansub emas. Aholining nahor oshiga borishi, kechqurungi nikoh bazmlari, navro'z yoki hayit bayramlarini nishonlanishi ko'pchilik tasavvur qilganidek an'anaviylik yoki milliy qadriyatlar namunasi ekanligini anglatmaydi. Bularni odat yoki e'tiqodga vosita bo'lgan element sifatida baholash mumkin.

O'zbek jamiyati modernizatsiyalashgan tizim bo'lib, o'zida to'liq zamonaviylikni aks ettiradi. Aholining savodxonlik holati, huquqiy madaniyati, ilmiy-texnik imkoniyatlari, transport va kommunal infratuzilmalarning mavjudligi, axborot bilan ta'minlanganlik darajasi bunga yaqqol misol bo'ladi. Faqat zamonaviylikning rivojlanish sur'ati va shakliga oydinlik kiritilishi kerak xalos. Bugungi kunda kimano kiygan yapon, do'ppili o'zbek yoki belbog' taqqan xitoylikni an'anaviy jamiyat kishisiga qiyoslash butunlay noo'rin bo'ladi. So'nggi yillarda MDH davlatlari ichida mazkur masala yuzasidan alohida ilmiy ishlar olib borayotgan mutahassis Rossiyalik olim V.M.Nilovdir. Ayniqsa uning «Sport sosiologiyasi» deb nomlangan o'quv qo'llanmasi alohida ahamiyat kasb etadi.

«Sport sosiologiyasi» (muallif V.M.Nilova) deb nomlangan o'quv darsligida asosiy e'tibor sport tushunchasini oila va davlat kabi sosial institut sifatida olinishi bilan diqqatga sazovordir. Shuningdek sportni ijtimoiy hayotdagi o'rniga to'xtalar ekan, muallif, uni sosiologik uslublar yordamida tahlil etadi, hamda jamiyatda sportni saqlash uchun individual va ommaviy holatlar tahlil etilganligiga izoh berib o'tadi. Bu bilan zamonaviy jamiyatda sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya masalalarining hozirgi davrdagi holati ko'rsatib o'tiladi. Sport - bu tarbiya bo'lib, u insonlarning ruhiy olamiga, hissiyoti va tuyg'ulariga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Sport muammosi qaysi jamiyat bilan bog'liq bo'lmasin, u baribir shu jamiyatga tegishli bo'lgan etnopsixologik tomonlarni o'zida mujassamlashtiradi. Ya'ni o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalashda sport instituti etnopsixologik va etnososiologik tomonlardan tarkib topadi va rivojlantiriladi. Jamiyat bu insonlar uyushmasi, oila esa uning bir kichik bo'lakchasidir. Jamiyat oilalardan iboratdir. Oilasiz jamiyat yuzaga kela olmaydi, oila esa biron-bir guruh yoki jamiyatga birlashmay iloji yo'q. Oila muqaddas dargoh. Unda jamiyatda yuz beradigan barcha o'zgarishlar o'z aksini topadi. Sport ahamiyati aynan oila bilan chambarchas bog'liqdir. Horij davlatlarida yuqorida ta'kidlaganimizdek sport sosiologiyasiga alohida e'tibor qaratiladi, shu sababli ham ushbu muammoni har tomonlama batafsil o'rganish uchun sosiologiyaning bir qator tarmoq yo'nalishlari, xususan, oila sosiologiyasi, huquq sosiologiyasi, fan sosiologiyasi, sport sosiologiyasi, din sosiologiyasi kabi sohalari unga batafsil to'xtaladilar[3].

Har qanday ijtimoiy rivojlanishni ta'minlovchi asosiy kuch va omil shaxsdir. Alohida insonni yetakchi kuch sifatida idrok etish, shaxsga har qanday rivojlanish va jamiyat istiqbolini yaratuvchi manbaa sifatida qarash ijtimoiy hayotning real voqeligini tan olish demakdir. Sobiq sovet tizimi va kommunistik mafkurasi alohida shaxsning o'rnini mutlaqo qadrsizlantirdi hamda jamoaviy ongini yetakchi o'ringa ko'tardi. Natijada shaxs erkinligi, uning yaratuvchanlik va tashabbuskorlik qudrati chetga surib qo'yildi va individuallik fenomeni mutlaqo tan olinmay kelindi. Nazarimizda, chet el ijtimoiy fanlarining rivojlanishidagi asosiy omillardan biri - aynan inson kamolotini, alohida shaxs individualligini tan olish, insonga har qanday vaziyatda tanlov erkinligiga imkon berish, shaxsning psixologik to'kinligini ta'minlash yo'lidagi izlanishlar bilan bog'liq deyish mubolag'a bo'lmaydi. Shaxsning o'zligini namoyish etish imkonini berish, uning o'ziga xosligini tan olish va umuman, har qanday vaziyatda shaxsga tanlov imkonini berish ijtimoiy munosabatlarning yetukligi, jamiyatning rivojlanganlik darajasini ko'rsatuvchi asosiy omillardan biridir. Shu munosabat bilan, zamonaviy ijtimoiy fanlar orasida muhim va yetakchi mavzu sifatida alohida shaxs va uning ruhiy farovonligini



ta'minlash masalasi yetakchi mavzuga aylanishi mumkin. Shaxsning ruhiy farovonligi haqida gapirar ekanmiz, uning psixologik to'kinligi masalasi ustida to'xtalib o'tish muhim. Aynan psixologik to'kinlik insonning o'z hayoti uchun mas'ul bo'lish, o'z hayot yo'li tanloviga javob berish, o'z xulqini ongli boshqarish kabi muhim ijtimoiy psixologik masalalarning asosida yotadi. Psixologik to'kinlik nafaqat shaxsning ayni paytdagi holati, balki uning o'tmishi va kelajagini qanday tasavvur qilishi mahsulidir. Bir tomondan psixologik to'kinlik shaxs o'zi shakllangan oilada olgan mehr-muhabbat, ardoqlanganlik hissidan to'yinganligi bilan asoslansa, ikkinchi tomondan, bugungi kunga qadar shakllangan dunyoqarash, kelajakka bo'lgan umid va ishonch, o'z imkoniyati va qobiliyatini to'la anglagan holda o'z kelajagini yarata olish hissi bilan chambarchas bog'liqdir. Shaxsning psixologik to'kinligi tom ma'noda nafaqat yagona bir individning, balki jamiyat rivojining asosida yotuvchi muhim bir kuch va omildir. Chunki, o'ziga ishongan, o'z imkoniyat va qobiliyatlariga yuqori baho beradigan insongina nafaqat o'z hayoti, balki jamoada ham yetakchilik rolini o'z bo'yniga olishi mumkin. Aynan shu sababli ham, barcha ijtimoiy va gumanitar fanlarning muhim tutashuv nuqtasi sifatida alohida shaxsning ruhiy farovonligini ta'minlash markaziy masalaga aylanishi lozim.

Yoshlar orasida yetakchi qadriyatlarni o'rganishga bag'ishlangan tadqiqot natijalariga ko'ra, bugungi yoshlarda o'z hayotidagi muhim masalalarni mustaqil hal qilish, o'z hayot yo'lini mas'uliyatli tarzda qurish, umuman olganda chin ichki tuyg'ularni namoyish etish bilan yashash istagi yetakchi qadriyatlar sirasiga kirishi aniqlangan. Shaxsning o'zligini namoyish etishi, muammoli va muhim hayotiy vaziyatlarda erkin tanlovni amalga oshirish istagi ulg'ayayotgan inson uchun doimo muhim qadriyat sifatida e'tirof etilgan. Yuqorida qayd etilgan tadqiqotlarda ham ushbu holat qayd etilar ekan, bunday chin insoniy fenomenni ro'yobga chiqarish uchun sosial, gumanitar fanlarning birlashishi va umumiy maqsad yo'lida harakat qilish davr taqozosidir. Nazarimizda, falsafa umumilmiy fan sifatida barcha ilmiy izlanishlarning metodologik asosi sifatida namoyon bo'lar ekan, pirovard natija esa alohida shaxsning ruhiy barkamolligi va farovonligi bilan o'lchanishi mumkin. Ya'ni, har qanday ijtimoiy fanlarning ilmiy va amaliy yutug'i oxir oqibat shaxsning erkin rivoji uchun yaratilgan sharoitning mavjudligi va uning imkoniyatlari bilan baholanishi lozim. Bugungi kunda ayniqsa sport sohasida katta islohotlar amalga oshayotgani guvohi bo'lyapmiz. Maktab va liseylar, kolledj va institutlar qayta qurilib, kapital ta'mirlash ishlari amalga oshirilmoqda. Zamonaviy o'quv binolari, shinam sinflar, o'quv anjomlari bilan ta'minlanganlik kabi yangiliklar moddiy resurslar sirasiga kirsada, sport jarayonini tashkil etishda qator

vazifalar turibdi. Jumladan, dars va mashg'ulotlarni interfaol sport texnologiyalarida tashkil etish, o'quvchi shaxsida komillikka intilish va uning ruhiy holatini, mustaqil xulqini shakllantirishni yetakchi o'ringa qo'yish - zamonaviy pedagogik jarayonning markaziy nuqtasiga aylanishi lozim. Buning uchun birinchi o'rinda, ilg'or sport texnologiyalari bilan qurollangan pedagoglar, boladagi shaxs erkinligi va mustaqil tanlovini eng oliy qadriyat sifatida tan olgan murabbiylar bo'lishi juda muhim. Ko'p jihatdan sport sohasini ta'minlovchi fanlarning oldida turgan vazifalardan biri ham aynan shunday sport jarayonini ta'minlovchi o'quv dasturlari va materiallari bilan ta'minlashdan iborat bo'lishi lozim.

### **Natijalar**

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, aholini jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlariga bo'lgan qiziqishlarini qay tarzda uyg'otish va ularni qanday usullar yordamida mazkur mashg'ulotlarga jalb qilish haqidagi savollarga javoblarni aynan shu fan doirasida topish mumkin ekanligi alohida ahamiyat kasb etadi. Sport sohasida karyera qilish, sportchining ijtimoiylashtirilishi, unda jamiyat manaatlariga mos ravishda va o'z shaxsiyatidan kelib chiqqan holda ijtimoiy mas'uliyatni oshirish—"jismoniy tarbiya va sport sosiologiyasi" fani tomonidan o'rganiladigan muammolar doirasi aynan shu masalalardan iborat. Uning predmetini ta'riflashda jismoniy tarbiya va sport ikkita to'laqonli mustaqil fenomen (hodisa) ekanligi namoyon bo'ladi.

Ehtimol, kelajakda ularni sosiologik jihatdan alohida o'rganish zarurati tug'ilishi mumkin. Mazkur nuqtai nazarning asosli ekanligini tan olgan holda, biroq shunga qarmasdan mazkur fan rivojlanishining ayni vaqtdagi rivojlanish jarayonida jismoniy tarbiya va sportning ijtimoiy muammolarini bitta o'quv kursi doirasida birlashtirish maqsadga muvofiq.

Bugungi kundagi ko'pgina sohalarni tahlil qiladigan bo'lsak, shaxsning erkin tanlovini ta'minlash yo'lida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida to'xtalib o'tish mumkin. Kasb tanlash va ayniqsa, xorijda o'qish imkoniyatiga ega bo'lish, shaxsning o'z hayotini mustaqil qurishdagi asosiy omillardan biridir. Hatto yoshlarning o'z oldida turgan harbiy burchini o'tashda muqobil xizmat turini tanlash imkoniyati, erkin tanlovni amalga oshirishning eng yuksak darajasi sifatida e'tirof etilishi mumkin.

Turli sohalarni tahlil qilarkanmiz, erkin va komil shaxsni tarbiyalashda oila institutining yetakchi o'ringa chiqishi alohida ta'kidlab o'tilishi lozim. Afsuski, bugungi kunda yoshlar ma'naviyati bilan bog'liq asosiy muammolar oilada ro'y berayotgan muammoli vaziyatlar bilan bog'liqligi kuzatilmoqda. Oilaviy munosabatlardagi tajangliklar, ayrim oilalarda amal qiluvchi qadriyatlarning

iste'molchilik, moddiy boylik orttirish va soxta obro'ga ega bo'lishga yo'nalganligi ulg'ayayotgan bolada shunga mos qadriyatlarning ustunlik qilishiga, uning rivojlanish istiqbolini moddiy mulkka ega bo'lish darajasida qolib ketishiga, har qanday hayotiy tanlovni faqat moddiy mezonlar asosida amalga oshirishiga sabab bo'lmoqda. Albatta ma'naviy yetuk, mustaqil e'tiqod va psixologik to'kin insonni shakllantirish yo'lida oila boshi, ota-onalar bilan ishlash muhim vazifaga aylanadi. Ushbu maqsad yo'lida oila institutiga aloqador bo'lgan barcha fan va sohalar mas'uldir. Bunday holat esa ijtimoiy fanlar oldida yangi vazifalar qo'yadi va barcha sohalarning integratsiyalashuvini talab qiladi.

Shunday qilib, bugungi kunda mamlakatda o'tayotgan islohotlarning yorqin ko'zgusi sifatida ijtimoiy fanlarning holati degan muhim tezisni e'tirof etish payti keldi. Ushbu sohada ayniqsa bevosita inson va uning ijtimoiy hayotini tadqiq etuvchi fanlar - sosiologiya, falsafa va psixologiya fanlari yetakchi o'ringa chiqadi. Ushbu fanlarning mahsuli sifatida esa, jamiyatda yashab istiqomat qilayotgan insonlarning ruhiy farovonligini aniqlash va ushbu mezonning yanada oshishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni o'rganish hamda ularni faollashtirish bo'yicha tadbirlar yaratish muhim va dolzarb masalaga aylanadi. ushbu yo'nalishda barcha ijtimoiy fanlar oldida integratsiyalashgan vazifalarni qo'yish, ushbu vazifalarni hal etishda barcha mas'ul olim va izlanuvchilarni boshini birlashtirish yanada muhim masaladir. Balki bunday ulkan vazifani hal etishda alohida, biron ijtimoiylashgan ilmiy-amaliy markazning yaratilishi ehtimoldan holi emasdir.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarda shaxs xususiyatlarini o'rganuvchi nazariyalar quyidagicha turkumlanishi mumkin: psixodinamik, sosiodinamik, interaksionistik, psixodinamik nazariyaga ko'ra, shaxs xulq-atvori uning ichki, subektiv xususiyatlaridan kelib chiqib ta'riflanadi. Sosiodinamik nazariyada esa, shaxs hulqi shakllanishi tashqi vaziyatlar bilan bog'lanadi va ichki xususiyatlar ikkilamchi hisoblandi. Interaksionallikda inson xulqini boshqarishda ichki va tashqi omillar o'zaro ta'sirlanishi tamoyillari birlamchi, deb belgilanadi. Shuningdek, oraliq nazariya ham bo'lib unga ko'ra, biologik xususiyatlar va sosial tajriba shaxs shakllanishining bosh omili sifatida ko'rsatiladi. Ammo, ilmiy adabiyotlarda shaxs shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi bosh omillar sifatida;

- biologik irsiylik,
- jismoniy muhit,
- madaniyat,
- jamoaviy va unikal individual tajriba ko'rsatiladi.

O'tgan asrda sosiologiya va psixologiyada qayd etilgan omillarning o'zaro ta'siri natijasida unikal, takrorlanmas shaxsiyat shakllanishini izohlovchi qator g'oyalar ilgari



surildi. Bular shaxs rivojlanishi nazariyasi, psixozanaliz, ong taraqqiyoti nazariyasi, ma'naviy o'sish g'oyasi va boshqalardir. Shaxs rivoji nazariyasi ikki asosiy g'oyani ilgari suradi. Birinchisi – ko'zgidagi qiyofa effekti bo'lib, kishilarning atrof-muhit bilan faol o'zaro munosabati asosida shakllanadi va shaxsni boshqalar qay tarzda qabul qilishlari va baholashlari tasavvurlariga asoslanadi. Shaxs tabiiy qobiliyatlarni rivojlanishi bilangina rivojlanib qolmaydi, aksincha, o'zi kabilar bilan muloqot jarayonida shakllanib boradi. Ushbu nazariya mashhur amerikalik psixolog va sosiolog Charlz Xorton Kuli (1864-1929) tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, shaxsning o'z «MEN»ni boshqalardan farqini anglab borish jarayonini tadqiq etadi. Ko'plab tajribalar natijasida u shaxs rivoji uni o'rab turgan muhit ta'sirida sodir bo'lishini anqlaydi[4]. Shaxsning «MEN-obrazi» birgina ob'yektiv xususiyatlar bilan belgilanmaydi. U sosial tajriba mahsuli hamdir. Boshqalarning reaksiyasi natijasida yuzaga chiquvchi insoniy «MEN» «Ko'zgidagi-MEN» deb nomlandi. «Ko'zgidagi-MEN» obrazi shakllanishi uch bosqichda kechadi: 1) boshqalarga bizning munosabatimiz; 2) bizning boshqalarga munosabatimizni qabul qilishlari borasidagi tasavvurlarimiz; 3) boshqalarning fikri borasidagi bizning o'y-hayollarimiz. Bu o'ziga xos sosial ko'zgu bo'lib, u doimiy harakatdadir. Sosial ko'zgu sharofati bilan shaxsning ijobiy yoki salbiy xususiyatlari anglanadi.

Shaxs rivojlanib borgani sari unga sosial ko'zgu sifatida xizmat qiluvchi guruhga mansublik jiddiy ta'sir o'tkazadi. Boshqacha qilib aytganda inson ba'zi fikrlarga diqqat bilan e'tibor qilsa boshqalarini e'tiborsiz qoldiradi. Ch. Kuli nazariyasining zaif jihati shaxsning individual faolligi yetarlicha baholanmaganligi hamda shaxs rivoji birgina jamoatchilik fikriga bog'liq, deb talqin etilishidadir.

Ikkinchi g'oya amerikalik psixolog Djordj Gerbert Mid (1863-1931)ga tegishli bo'lib, unga ko'ra, shaxs rivoji boshqalar rolini qabul qilinishi natijasida shakllanuvichi «Men» va «Meni» tushunchalari bilan bog'liq holda sodir bo'ladi [5]. Mid fikricha shaxs shakllanishi uch bosqichda kechadi: Bular:

- imitatsiya – bunda bolalar o'zlari tushunmagan holda kattalar xulqini nusxalaydi.

- o'yin bosqichi – unga ko'ra bolalar xulq-atvorni ma'lum rollarni bajarilishi, deb biladilar. Bir roldan ikkinchisiga o'tish esa bolalarda o'z o'y-hayollari va xulqiga jamiyatning barcha a'zolari kabi ma'no-mazmun berish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu esa o'z «Men»ini anglashdagi navbatdagi qadam hisoblanadi. Midning ta'kidlashicha insoniy «Men» ikki qismdan iborat: «Men-o'zim» va «Men-meni». Men-o'zim – bu shaxsning boshqa insonlar va jamiyatning ta'siriga javob ta'sirlanishidir. Men-meni esa insonni o'zligini boshqa muhim insonlar nuqtai nazaridan kelib chiqib anglashidir. «Men-o'zim» «Men-meni» va boshqalar munosabatiga javob ta'sirlanadi. Sosial faollik

inson shaxs sifatidagi darajasining asosiy ifodasi bo'lib uning yuksak qadriyatli ehtiyojlarini qoplanishlari va sifat ko'rsatkichlaridir.

**Xulosa** demak, shaxs- individ ijtimoiy xususiyatlarining yaxlit majmui bo'lib sosial taraqqiyot va inson xatti-harakati, muomalasi vositasida sosial munosabatlar tizimida o'z o'rniga ega bo'lish mahsuli hisoblanadi. Shaxsning sosial rollarini bajarishi bir tekis kechmaydi. Bu jarayon ichki-rolli, rollararo, shaxsiy-rolli konfliktlarni keltirib chiqarish mumkin. Chunki, dinamik jamiyatlarda inson tomonidan bajarilayotgan rollar rolli talablar va kutishlarga mos kelmasligi mumkin. Har bir yangi bosqichda ijtimoiylashuv yangi ko'rinish va xususiyat kasb etadi va oldingi jarayonlardagi bosqichga o'xshamaydi. Yangi davrga o'tish «me'yoriy inqiroz» hisoblanadi. Bunda ziddiyat va ularni bartaraf etishga intilish sodir bo'ladi. Jamiyat individni munosib ijtimoiy vazifalarni bajarishga tayyorlaydi, me'yoriy usullarni aniqlash vosita orqali individning o'zi oldida turgan hayot muammolarini yechadi. Erikson inson hayotiy yo'lini sakkiz davrga bo'lib o'rganadi :

- go'daklik - bolani tashqi dunyoga «ishonch bazasi» bilan tarbiyalash kiradi. Bunda asosiy vosita ota-ona g'amxo'rligi va muhabbati hisoblanadi. Agar «ishonch bazasi» shakllanmasa bolada dunyoga «ishonchsizlik bazasi» shakllanadi va doimiy xavotirlik paydo bo'ladi.

- bolalik - bolada o'zining his-tuyg'ulari va shaxsiy qadriyatlar yoki ularning aksi bo'lgan - hayo va gumonlar shakllanadi. Bolaning mustaqil o'sishi, jismoniy faoliyat bilan bog'lanishi unga tanlash imkoniyatini beradi. Bunday bosqichning rivojlanishi kelajakda shaxsga javobgarlik tuyg'usi sifatida tartib-qoidaga hurmat hissini uyg'otadi.

- o'yinqaroq bolalik (taxminan besh yoshdan etti yoshgacha syerharakatlilik) hissi shakllari, nimalarnidir qilishni xohlaydi. Agar bu xoihshlarini yig'ganda ayblash hissi paydo bo'ladi. Bu yoshda guruhlardagi o'rinlar, tengqurlari bilan munosabat, turli xil rollarni ko'radi, fantaziya qiladi va h.k. Bu bosqichda haqiqatgo'ylik hissi, huquqlarni tushunish munosabatlari yotadi.

- maktab yoshi - uddaburonlik hissi, o'z oldiga qo'ygan maqsadga intilish. Ahamiyatli qadriyatlarga ijodkorlik va chuqur munosabatning shakllanishi.

- o'smirlik - yakkalik hissiyotining o'sishi, boshqalarga o'xshamaslik. O'z-o'zini anglash ishtiyoqining kuchayishi, yangi vaqtni his etish, psixologik qiziqishlar, patogen jarayonlar sodir bo'ladi.

- yoshlik - boshqa odam bilan sosiopsixologik munosabatga kirishish talabi, qobiliyati bilan karakterlanadi. Uning muqobili - yolg'iz bo'lish hissiyoti oshadi.

- o'rta yosh - ijodiy faoliyatning oshishi. Ularning bu harakati faqat mehnatda emas, boshqalarga ham xizmat qilish va o'z tajribasini berish talabi oshadi.

- yetuklik yoki keksalik yoshi hisoblanib, o'z hayotidan mamnunlik, qoniqish, ayrim hollarda esa ruhiy tushkunlik, umidsizlik hissi bilan harakterlanadi[6].

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy jamiyatda sport va jismoniy madaniyat ijtimoiy institut sifatida namoyon bo'ladi va u o'zida aholi qatlamining qatta qismini qamrab oladi. Jamiyat sog'lom turmush tarzini ta'minlash, bo'sh vaqtni namoyon etishda u ta'lim va tarbiyaning bir qismi sifatida shakllanadi. Jismoniy madaniyat va sport orqali milliy mentalitet va identiklik xususiyatlari o'zining mukammallik omillarini belgilab beradi, unda aholi katta qismi, xususan yoshlar ijtimoiy faolligi umumlashgan milliy madaniyatning yakdilligini ta'minlashga xizmat qiladi. Davlatning qo'llab-quvvatlashi jismoniy madaniyat va sportni ommalashtirishda ilmiy yondashuvni talab etadi va bunda sosiologik tadqiqotlarning o'rnini beqiyos. Shu vaqtgacha jismoniy madaniyat va sportni ommalashtirishda pedagogika, psixologiya fanlaridan farqli ravishda sosiologiyaga kam e'tibor berilgan va uning muhim ahamiyat kasb etishi diqqat markazdan chetda qolib kelgan. Respublikamizda sport yangi pog'onaga olib chiqildi. Ayniqsa, yuqori natijalar sportini rivojlantirish, xalqaro maydonda kuchli raqobat qila oladigan yuqori malakali sportchilarni tarbiyalash, turli sport turlarida munosib zaxira tayyorlash va ilmiy-amaliy salohiyatga ega yetuk mutaxassis kadrlarni yetishtirish mamlakatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. O'tgan davr ichida sportchilarimiz erishgan yutuqlarni tahlil qilib, O'zbekistonda sportning rivojlanish istiqbolini belgilab olish imkoniyati tug'ildi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jurbina A.D. Sosiologicheskiye aspekti fizicheskoy kulturi sporta // Nauchniy vestnik MGTU GA. Seriya: Istoriya. Filosofiya. Sosiologiya - 2007. № 113. - S. 146.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni
3. W.Petty, Chadwick, Guerin, Mayhew, Marx und Engels, Frank, Parsons, Denton, Straus, Freidson, Foucault, Merton, Susser, Steudler, Rider and Goss, Mechanic, Winter va boshqalar. MDH mamlakatlarida tibbiyot sosiologiyasiga oid muammolar bilan shug'ullanish o'tgan asrning 50-70 yillariga to'g'ri kelib, unda Biryukov D.A., Grahenkov N.I., Jdanov V.M., Izutkin A.M., Kerbikov O.V., Lisiso'n Yu.P., Serjantov V.F., Smulevich B.Ya., Saregorodsev G. I. va bir qator tadqiqotchilarning munosib ulushlari bor.

4. Sotsiologiya: Uchebnik /Pod red. prof. Yu.G. Volkova. Izd. 2-e, ispr. i dop.-  
M.: Gardariki, 2003. – S. 100.

5.Sotsiologiya: Uchebnik /Pod red. prof. Yu.G. Volkova. Izd. 2-e, ispr. i dop.-  
M.: Gardariki, 2003. – S. 102.

6.Qarang: Dobrenkov V.I., Kravchenko A.I. Fundamentalnaya sotsiologiya. V  
pyatnadtsati tomax. Tom-7. CHelovek, individ, lichnost. – M.: INFRA-M, 2005.